

“KELAJAK SOATI” —MASHG‘ULOT ISHLANMASI (9-11 SINFLAR UCHUN)

1-mavzu: Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!

Mashg‘ulot maqsadi

O‘quvchilarda Vatan taqdiri uchun mas‘uliyat, millatlararo totuvlikni qadrlash va yagona xalq sifatida jipslashish tuyg‘ularini shakllantirish;

Yangi O‘zbekistonni barpo etishda yoshlarning o‘rni, amalga oshirilayotgan siyosiy-huquqiy islohotlar va zamonaviy imkoniyatlar haqida ma‘lumot berish;

Tahliliy fikrlash, jamoada ishlash va o‘z fikrini asosli himoya qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Kutilayotgan natija

Mashg‘ulot yakunida o‘quvchilar O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining mazmun-mohiyati, uning mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz hayotidagi ahamiyati haqida tushunchaga ega bo‘ladilar. “Yagona Vatan, yagona xalq” g‘oyasining mazmunini anglab, jamiyatdagi tinchlik, hamjihatlik, o‘zaro hurmat va birdamlikning mamlakat rivoji uchun muhim ekanini tushunadilar. Shuningdek, o‘quvchilarda Vatanga hurmat va sadoqat, milliy g‘urur hamda fuqarolik mas‘uliyati tuyg‘ulari mustahkamlanadi. Ular o‘z fikrlarini erkin, mantiqiy va dalillar asosida bayon qilish, turli qarashlarni tinglash va munozarada faol ishtirok etish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Eng muhimi, o‘quvchilar Yangi O‘zbekistonning kelajagini yaratishda bilim, mehnat, tashabbus va hamjihatlik muhim omil ekanini anglab yetadilar.

MASHG‘ULOTNING BORISHI:

I. TASHKILIY QISM (5 daqiqa)

O‘quvchilar bilan samimiy salomlashish va ijobiy kayfiyat yaratish.

Davomatni aniqlash, sinfning mashg‘ulotga tayyorgarligini nazorat qilish.

O‘quvchilarning diqqatini jamlash va ularni mashg‘ulotga ruhiy jihatdan tayyorlash.

Mashg‘ulot mavzusi va uning maqsadi haqida qisqacha ma‘lumot berib, o‘quvchilarda mavzuga qiziqish uyg‘otish.

O‘quvchilarni faol ishtirok etishga, o‘z fikrlarini erkin va asosli bayon qilishga yo‘naltirish.

II. Motivatsion qism (5 daqiqa)

O‘qituvchi: Assalomu alaykum, aziz o‘quvchilar! Avvalo, barchangizni yangi o‘quv yilining boshlanishi va **“Bilimlar kuni”** bilan samimiy muborakbod etaman! Yangi o‘quv yili barchangiz uchun yangi bilimlar, katta imkoniyatlar, ezgu maqsadlar va ulkan yutuqlar sari boshlanadigan qutlug‘ qadam bo‘lsin.

Sizlarga mustahkam sog‘liq, tuganmas g‘ayrat-shijoat, o‘qishlaringizda muvaffaqiyat va kelajakdagi ezgu maqsadlaringiz sari dadil qadamlar tilayman. Sidqidildan bilim oling, izlanishdan to‘xtamang, o‘z ustingizda muntazam ishlang va kelajakda Vatanimiz faxriga aylanishga intiling.

Shuningdek, barchangizni O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi bilan chin qalbimdan muborakbod etaman!

Bugun biz uchun muhim va mazmunli mavzu - **“Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!”** mavzusida suhbatlashamiz.

Mustaqillik - bizga o‘z kelajagimizni o‘zimiz belgilash, milliy qadriyatlarimizni asrash, erkin ta‘lim olish, bilim va salohiyatimizni namoyon etish hamda yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shish imkonini bergan buyuk ne‘matdir. Bugungi tinch va farovon hayotimizni qadrlash, Vatanimiz kelajagiga befarq bo‘lmaslik, uni sevish va ravnaqiga o‘z hissamizni qo‘shish har birimizning fuqarolik burchimizdir.

Yagona Vatan - bu barchamiz uchun umumiy bo'lgan muqaddas maskan. Yagona xalq bo'lish esa bir-birimizni hurmat qilish, hamjihatlikda yashash, umumiy maqsadlar yo'lida birlashish va yurtimiz kelajagi uchun birgalikda harakat qilish demakdir.

Bugungi mashg'ulot davomida biz Vatan, birlik, mustaqillik, hamjihatlik va kelajak tushunchalari haqida fikr yuritamiz. Eng muhimi, "Men Vatanim kelajagi uchun nima qila olaman?" degan savolga o'zimiz uchun javob izlaymiz.

III. ASOSIY QISM: GURUHLARDA ISHLASH (20 daqiqa)

Maqsad: Mavzuni chuqur o'rganish, siyosiy faktlar va raqamlar yordamida g'oyani asoslash.

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar! Barchangizni bugungi mashg'ulotimizda ko'rib turganimdan mamnunman. Bugungi mashg'ulotimiz yurtimiz hayotidagi ulug' va qutlug' sana - O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligiga bag'ishlanadi. Aziz o'quvchilar, Vatan - bu shunchaki biz tug'ilib o'sgan hudud yoki biz yashayotgan maskan emas. Vatan - bu bizning tariximiz, milliy qadriyatlarimiz, ona tilimiz, ajdodlarimiz xotirasi, bugungi kunimiz va kelajakdagi ezgu orzularimizni birlashtirib turadigan muqaddas tushunchadir.

Bugun biz mustaqil O'zbekistonda yashayotganimizni faxr bilan aytamiz. Ammo mustaqillik bizga osonlik bilan kelmagan. Uning zamirida xalqimizning asrlar davomida saqlab kelgan ozodlik va erkinlik haqidagi ezgu orzulari, ajdodlarimizning jasorati, sabr-toqati, ilmiy va ma'naviy merosi mujassam. Tariximizga nazar tashlasak, yurtimizdan jahon ilm-fani va madaniyati taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk allomalar yetishib chiqqanini ko'ramiz. Bugun esa ana shu ulug' tarixning munosib davomchilari - siz, yosh avlodsiz. Sizlarning yaxshi ta'lim olishingiz, zamonaviy bilim va kasblarni egallashingiz, zamonaviy texnologiyalarni puxta o'zlashtirishingiz, eng muhimi, Vatanga daxldorlik va mas'uliyat tuyg'usi bilan yashashingiz - mamlakatimiz kelajagi uchun juda muhim.

Yagona Vatan bizni birlashtiradi. Yagona xalq sifatidagi hamjihatligimiz esa bizni yanada kuchli qiladi. Chunki taraqqiyot o'z oldiga umumiy maqsad qo'ygan, bir-birini qo'llab-quvvatlaydigan va Vatan ravnaqi uchun birgalikda harakat qiladigan xalqning sa'y-harakati bilan bunyod etiladi.

Zero, yangi hayot va yangi kelajakni faqat bugungi yoshlarning bilimi, intilishi, mehnati va ezgu maqsadlari yaratadi.

Endi esa mavzuni yanada chuqurroq anglashimiz uchun videokontentni tomosha qilsak. Videokontentni diqqat bilan kuzating. Unda aks etgan fikrlarni tahlil qiling, mustaqillikning qadr-qimmatini va bugungi O'zbekistonning taraqqiyot yo'lida qo'shmoqchi bo'lgan hissangiz haqida fikr yuriting.

Marhamat, videolavhani birgalikda tomosha qilamiz!

Ekkranda: *Ma'naviy kontent namoyish etiladi: 1,5-2 daqiqali qisqa video-rolik ("Nima qilmoqchisan" deb nomlangan videorolikda tarixiy shaxslarning ishlari ularning o'zlarining tillaridan gapiriladi va rolik so'nggida o'quvchiga sen nima qilmoqchisan deb tugallanadigan bag'ishlangan motivatsion rolik ko'rsatiladi).*

O'qituvchi: Mana videokontentni tomosha qildik. Endi har bir guruh o'quvchilaridan "Men Yangi O'zbekiston uchun nima qilaman" degan fikrni muhokama qilsak. Fikrlar va qo'shmoqchi bo'lgan hissamiz kreativ, kelajak uchun xizmat qiluvchi omil bo'lsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Marhamat o'quvchilar.

O'quvchilar: "Men o'z Vatanim kelajagi uchun bugun nima qila olaman?" 3 ta guruhdan iborat o'quvchilar o'zlari fikrlarini sinfga o'qib beradi. **(7 daqiqa).**

O'qituvchi: Barakalla bolalar! Fikrlaringizni eshitib juda xursand bo'ldim. Aziz



o'quvchilar! Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, erishilayotgan ulkan yutuqlar va xalqimizning salmoqli natijalari barchamizga cheksiz faxr va iftixor bag'ishlaydi. Mustaqil O'zbekistonning dunyo hamjamiyatidagi

nufuzi va mavqei tobora yuksalib, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ezgu va bunyodkorlik ishlari xalqaro miqyosda ham e'tirof etilmoqda. Osmoni musaffo, tinchlik va osoyishtalik hukm surayotgan yurtimizda bunyodkorlik ishlari izchil davom etmoqda. Ana shunday ulkan va e'tiborga molik loyihalardan biri - Toshkent shahrida qad rostlagan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazidir.

Ekkranda: Islom sivilizatsiyasi markazi haqidagi videorolik namoyishi (3-daqiqa).

O'qituvchi: Viderolikni tomosha qildik. Unda Islom sivilizatsiyasi markazining ulug'vor qiyofasi, uning mazmun-mohiyati va yurtimiz tarixiy-ma'naviy merosini asrab-avaylashdagi muhim o'rni haqida tasavvurga ega bo'ldik.

Mazkur markaz yurtimizning boy ilmiy-ma'rifiy va ma'naviy merosini asrab-avaylash, uni o'rganish va keng targ'ib etish bilan birga, O'zbekiston zaminidan yetishib chiqqan buyuk allomalar va mutafakkirlarning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan beqiyos hissasini namoyon etuvchi muhim maskanlardan biridir. Quvonarlisi, 2026-yil 13-aprel kuni O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markaziga "Largest museum of Islamic civilisation" - "Dunyodagi eng yirik islom sivilizatsiyasi muzeyi" nominatsiyasi bo'yicha Ginnesning rekordlar kitobining rasmiy rekordi [berildi](#). Mazkur xalqaro e'tirof O'zbekistonning islom sivilizatsiyasi va jahon ilm-fani tarixiga munosib o'rnini yana bir bor namoyon etadi.

Shuningdek, markazning ilmiy va madaniy faoliyati xalqaro miqyosda ham e'tirof etilmoqda. Jumladan, Abu Ali ibn Sinoning ilmiy merosini tadqiq etish va ommalashtirish borasidagi faoliyati uchun Markaz "Prix Avicenne" mukofotiga sazovor bo'ldi. Shuningdek, Smithsonian Magazine Markazni 2026-yilda dunyoda eng katta qiziqish bilan kutilayotgan TOP-10 muzey loyihasi qatoriga kiritdi. Prix Versailles tomonidan Markaz dunyodagi eng go'zal muzeylar global ro'yxatidan joy oldi, BBC Travel esa uni 2026-yilda ochilishi eng ko'p kutilayotgan olti muzey qatoriga [kiritdi](#). Mazkur xalqaro e'tiroflar Markazning O'zbekistonning boy tarixiy va ilmiy-ma'naviy merosini dunyoga tanitishdagi ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Bu xalqimiz, yurtimiz va, ayniqsa, yosh avlod uchun katta faxr va iftixor manbaidir. Mazkur xalqaro e'tirof O'zbekistonning islom sivilizatsiyasi va jahon ilm-fani tarixidagi munosib o'rnini yana bir bor namoyon etadi.

Yurtimizda qayd etilayotgan bunday xalqaro natijalar nafaqat ilm-fan va ma'naviyat, balki milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz va tabiat ne'matlarimiz bilan ham bog'liq. Jumladan, Namangan viloyatida o'tkazilgan 65-Xalqaro Gullar festivali ham yurtimiz uchun yana bir tarixiy natijani taqdim etdi. Festival doirasida "Jamo bo'lib bir oy davomida eng ko'p ekilgan gullar" yo'nalishida Ginnes rekordi [o'rnatildi](#). Festivalga tayyorgarlik jarayonida viloyat bo'yicha 150 mln tup gul ekilgan. Bu xalqimizning obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va tabiatga bo'lgan mehr-muhabbatini namoyon etuvchi e'tiborli yutuqlardan biridir.

Bundan tashqari, 2026-yil 7-9-avgust kunlari Xiva shahrida o'tkazilgan "Qovun sayli"da ham O'zbekiston uchun quvonarli natija qayd etildi. Festival doirasida "Eng ko'p qovun tatib



ko'rilgan festival" yo'nalishida Ginnes rekordi [o'rnatildi](#). Unda 259 kishi bir vaqtning o'zida 10 dan ortiq qovun navini tatib ko'rdi. Rekordni tasdiqlash jarayonida Ginnes vakili Sheyda Subashi ham ishtirok etdi. Mazkur rekord Xivaning qadimiy an'analari, xalqimizning mehmondo'stligi hamda yurtimizda yetishtirilayotgan sara poliz mahsulotlarini dunyoga namoyish etish uchun muhim imkoniyat bo'ldi.

Eslatma: Yuqoridagi Islom sivilizatsiya markazi,



“Qovun sayli” va “Gullar festivali” haqidagi ma’lumotlarda berilgan giperhavolalar orqali ko’proq ma’lumotga ega bo’lish mumkin.

“Endi esa yuqorida tilga olingan xalqaro e’tirof va yutuqlarning mazmun-mohiyatini, ularning yurtimizning ilmiy-ma’rifiy, madaniy va ijtimoiy hayotidagi ahamiyatini yanada chuqurroq tahlil qilish maqsadida Islom sivilizatsiyasi markazi, “Qovun sayli” va “Gullar festivali” bilan bog’liq bir nechta savollar bilan sizlarga murojaat qilmoqchiman.”

Savollar:

1. Tasavvur qiling, siz Islom sivilizatsiyasi markazida asrlar davomida saqlanib kelgan noyob qo’lyozmalar va qadimiy Qur’on nusxalarini tomosha qilyapsiz. Bunday tarixiy merosni ko’rish sizda qanday fikr va taassurotlarni uyg’otadi?

2. Yurtimizdan Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi buyuk olimlar yetishib chiqqan. Sizningcha, Islom sivilizatsiyasi markazida ajdodlarimizning ilmiy merosi bilan tanishish yoshlarni ilm-fan sohasida yangi izlanish va kashfiyotlar qilishga qanday undashi mumkin?

3. Sizningcha, Islom sivilizatsiyasi markazi xorijiy sayyohlarga O’zbekistonning boy tarixi va ilmiy-ma’naviy merosini tanitishda qanday ahamiyatga ega?

4. “Qovun sayli”da o’rnatilgan Ginnes rekordi xalqimizning milliy qadriyatlari, mehmondo’stligi va qishloq xo’jaligi mahsulotlarini xalqaro miqyosda targ’ib etishda qanday ahamiyatga ega?

5. 259 kishining bir vaqtning o’zida 10 dan ortiq qovun navini tatib ko’rgani O’zbekistonning qovunchilik an’analari va polizchilik salohiyati haqida qanday xulosalar chiqarish imkonini beradi?

6. Namangan viloyatida o’tkazilgan 65-Xalqaro Gullar festivalida 150 million tup gul ekilgani yurtimizda obodonlashtirish va ko’kalamzorlashtirish ishlarining rivojiga qanday ta’sir ko’rsatadi?

7. “Jamo bo’lib bir oy davomida eng ko’p ekilgan gullar” yo’nalishida Ginnes rekordining o’rnatilishi jamoaviy hamkorlik, ekologik madaniyat va tabiatga bo’lgan munosabat nuqtayi nazaridan qanday ahamiyatga ega?

O’quvchilar: Savollarga javob beradilar va umumiy muhokama qiladilar? (2 daqiqa)

O’qituvchi: Hurmatli o’quvchilar. Avvalgi videolavhada yurtimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari va yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar haqida ma’lumot oldik. Endi esa mavzumizni davom ettirib, sizning kelajagingiz, bilim olish va o’z ustingizda ishlashingiz uchun muhim bo’lgan yana bir jihatga e’tibor qaratamiz.

Hozir sizlarga “Bolalar kontent markazi” tomonidan tayyorlangan videolavhani namoyish etamiz. Unda bugungi yoshlar uchun yaratilayotgan ilmiy-ma’rifiy imkoniyatlar, bilim olishga xizmat qiladigan manbalar hamda tengdoshlaringizning turli sohalarda erishayotgan yutuqlari haqida so’z yuritiladi.

Videolavhani tomosha qilish davomida tengdoshlaringizning yutuqlariga, ular qanday bilim va ko’nikmalarga ega bo’layotganiga hamda o’z kelajagini qurish uchun qanday imkoniyatlardan foydalanayotganiga e’tibor qarating. Marhamat, videolavhani tomosha qilamiz!

Ekkranda “Bolalar kontent markazi” tomonidan taqdim etilgan videorlik beriladi(3-daqiqagacha).

O’qituvchi: Aziz o’quvchilar, videolavhani tomosha qildingiz. Unda tengdoshlaringizning turli sohalardagi yutuqlari, bilim olish va rivojlanish uchun mavjud imkoniyatlar haqida ma’lumot oldik. Ko’rib turganingizdek, bugungi kunda yoshlarning bilim olishi, o’z qobiliyatini namoyon etishi va kelajakda munosib o’rin egallashi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Endi e’tiboringizga navbatdagi videokontent (**siyosiy videokontent**) namoyish etiladi.

Ekkranda Oliy majlis senati raisi Tanzila Kamalovna Narbaeva ishtirokidagi intervyu beriladi. Unda Tanzila Kamalovna bugungi kunda yoshlarda mas’uliyat, vatanparvarlik va bag’rikenglik tushunchalarini tarbiyalash borasidagi fikr-mulohazalari keltirilgan videokontent namoyish etiladi.

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, videokontentni tomosha qildingiz. Unda yoshlar uchun muhim bo'lgan mas'uliyat, vatanparvarlik, bag'rikenglik va jamiyat oldidagi fuqarolik burchi haqida fikrlar bildirildi.

Endi sizlarning ham ushbu fikrlar yuzasidan qarashlaringizni eshitamiz. Videolavhada sizga eng muhim yoki ta'sirli bo'lgan fikr qaysi? Sizningcha, yosh insonda mas'uliyat va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish uchun nimalarga e'tibor qaratish kerak?

O'quvchilar: O'z fikrlarini bildiradilar, muhokama qiladilar.

IV. MUSTAHKAMLASH (10 daqiqa)

Maqsad: Olingan bilimlarni umumlashtirish va shaxsiy munosabatni shakllantirish.

Endi shu ma'noda guruhlar bilan birgalikda quyidagi pedagogik vaziyatni ko'rib chiqamiz?

1-keys: Vatanparvarlik: So'zdami yoki amalda?

Vaziyat: Iqtidorli yosh dasturchi xalqaro IT-musobaqada g'olib bo'ldi. Uning yutug'i xorijiy yirik kompaniyalardan birining e'tiborini tortdi. Kompaniya unga yuqori maosh, zamonaviy ish sharoiti va chet elda ishlash imkoniyatini taklif qildi. Shu bilan birga, O'zbekistondagi mahalliy startap jamoasi ham uni o'z loyihasiga taklif qildi. Ushbu loyiha orqali mamlakatimiz ta'lim tizimini raqamlashtirish va o'quvchilar uchun zamonaviy ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish ko'zda tutilgan. Biroq mahalliy loyihadagi ish haqi xorijiy kompaniya taklif qilgan maoshdan ancha kam.

Yosh dasturchi oldida ikki imkoniyat turibdi: yuqori daromad va xalqaro tajriba uchun xorijda ishlash yoki o'z bilim va tajribasini mamlakatimiz rivoji uchun sarflash. U qaysi yo'lni tanlash haqida ikkilanmoqda.

Muhokama uchun savollar:

1. Siz uning o'rnida bo'lganingizda qanday qaror qabul qilgan bo'lardingiz? Qaroringizni qanday asoslagan bo'lardingiz?

2. Xorijda muvaffaqiyatga erishib Vatan sha'nini himoya qilish va o'z yurtida qolib uni rivojlantirish - qaysi biri haqiqiy vatanparvarlik?

3. Zamonaviy yoshlar uchun vatanparvarlik nimada ko'rinadi?

2-keys: Tarixiy meros va kelajak mas'uliyati.

Vaziyat: Ekskursiya vaqtida bir guruh o'quvchilar tarixiy obida devoriga o'z ismlarini yozib qoldirmoqchi bo'lishdi. Ular bu ishni "Shunchaki esdalik uchun, hamma shunday qiladi-ku", deb izohlashdi. Boshqa bir o'quvchi esa ularni to'xtatib, tarixiy obidaga zarar yetkazish mumkin emasligini aytdi. U: "Bu obida ajdodlarimizdan qolgan bebaho tarixiy va madaniy meros. Uni asrash va kelajak avlodga yetkazish har birimizning vazifamiz", - dedi.

Muhokama uchun savollar:

1. Sizningcha, insonning tarixiy va madaniy merosga munosabati uning Vatanga bo'lgan hurmatini qanday namoyon etadi?

2. Tarixiy obidalar, tabiat va milliy boyliklarni asrash nima uchun har bir fuqaroning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi?

3. Siz ushbu vaziyatda o'sha o'quvchilarning o'rnida bo'lganingizda qanday yo'l tutgan bo'lardingiz? Nima uchun?

3-keys: Yagona Vatan va milliy birdamlik.

Vaziyat: Mamlakatimizning bir hududida kuchli tabiiy ofat - suv toshqini yoki zilzila sodir bo'ldi. Natijada ayrim xonadonlar zarar ko'rdi va ko'plab oilalar yordamga muhtoj bo'lib qoldi. Vaziyatdan xabar topgan yurtdoshlarimiz jabrlangan aholiga yordam berish uchun turli ko'ngilli tashabbuslarni yo'lga qo'ya boshladilar. Ular oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa zarur buyumlarni yig'ib, ehtiyojmand oilalarga yetkazishni maqsad qildilar.

Biroq ayrim fuqarolar: "Bu hudud bizdan uzoqda. Muammoni mahalliy hokimiyatning o'zi hal qilishi kerak", degan fikrni bildirdi. Boshqa fuqarolar esa bunga boshqacha munosabatda bo'lib: "O'zbekiston - yagona Vatan. Qaysi hududda yashashidan qat'i nazar, tabiiy ofatdan zarar ko'rgan insonlar bizning yurtdoshlarimiz. Imkonimiz darajasida ularga yordam berishimiz kerak", degan fikrni ilgari surdilar.

Muhokama uchun savollar:

1. Sizningcha, tabiiy ofat yoki boshqa og'ir vaziyatga duch kelgan yurtdoshlarimizga yordam berish fuqarolik mas'uliyatining qanday ko'rinishi hisoblanadi?

2. "Yagona Vatan - yagona xalq" degan tushuncha bunday vaziyatlarda qanday namoyon bo'ladi?

3. Insonning boshqalarga befarq bo'lmasligi jamiyatda qanday ijobiy o'zgarishlarga olib kelishi mumkin?

4. Agar siz shunday vaziyatga guvoh bo'lsangiz, qanday yordam ko'rsatishingiz mumkin?

O'quvchilar: Barcha guruh a'zolari uchun savol va muhokamalar boshlanadi. Belgilangan vaqt ichida ularning muhokamasi eshitaladi.

Vaziyat yechimi: Har bir guruh o'z yo'nalishi bo'yicha 2-3 daqiqadan chiqish qiladi. Boshqa guruhlar savollar berib, to'ldiradilar.

V. Uyga vazifa (5 daqiqa)

Uyga vazifa: Oila a'zolaringiz bilan "Mening oilam - Vatanimning bir bo'lagi" mavzusida suhbatlashing. Suhbat davomida Vatanga hurmat, milliy qadriyatlar, o'zaro mehr-oqibat, mehnatsevarlik va mas'uliyat kabi fazilatlarga qanday e'tibor berilishi haqida fikr almashing. Suhbat yakunida o'zingiz uchun muhim bo'lgan xulosalarni yozib keling. Keyingi mashg'ulotda o'z xulosalaringizni sinfdoshlaringiz bilan baham ko'ring va mavzu yuzasidan fikr almashing.

O'qituvchi: Hurmatli o'quvchilar. Bugungi "Kelajak soati" mashg'ulotimiz davomida "Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!" mavzusi doirasida mustaqillik, Vatanga sadoqat, fuqarolik mas'uliyati, tarixiy va ma'naviy merosimizni asrash hamda kelajak bunyodkorligida yoshlarning o'rnini haqida fikr yuritdik. Kelgusi "Kelajak soati" mashg'ulotlarida sizni yanada qiziqarli va mazmunli mavzular, tariximizda va bugungi hayotimizda munosib o'rin egallagan buyuk siymolar hamda zamondoshlarimizning ibratli faoliyati bilan tanishish imkoniyati kutmoqda.

Endi esa kelgusi mashg'ulotlarda nimalar haqida suhbatlashishimiz va qanday mavzular bilan tanishishimiz haqida qisqacha ma'lumot beruvchi videolavhani tomosha qilamiz.

Marhamat, videolavhani birgalikda tomosha qilamiz!

Ekkranda: "Kelajak soati" mashg'ulotlarining yil davomidagi mavzular asosida tavsiya etilgan mazkur mavzular mazmunida ta'lim-tarbiyaga yo'naltirilgan g'oyaviy qarashlar, davlat ramzlari va bayramlari, ma'naviy va siyosiy videokontentlar bilan boyitilgan manbalar asosida annotatsion videokontent namoyish etiladi.

O'qituvchi: Barakalla aziz o'quvchilar! Bugungi mashg'ulotimizni yakunlar ekanmiz, bir muhim fikrni yodda tutishimiz kerak: Mustaqillik - shunchaki tarixiy sana emas. U bizga berilgan ulkan imkoniyat bilan birga, Vatanimiz oldidagi katta mas'uliyatni ham anglatadi.

Mustaqillikni qadrlash - tinchlik va osoyishtalikni asrash, yurtimiz taraqqiyotiga befarq bo'lmaslik, yaxshi ta'lim olish, halol mehnat qilish va o'zimizdan keyingi avlod uchun munosib kelajak yaratishga intilish demakdir. Siz, aziz yoshlar, ana shu kelajakning bunyodkorlarisiz. Har biringizning bilimingiz, intilishingiz va ezgu amallaringiz Vatanimiz ravnaqiga qo'shiladigan munosib hissadir. Bugungi mashg'ulotda faol ishtirok etganingiz va o'z fikrlaringizni bildirganingiz uchun barchangizga rahmat!

O'quvchilar: Rahmat, hurmatli ustoz!